

TALABALAR BILIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA SHARQONA TA'LIM NAZARIYASI ASOSLARINING AHAMIYATI

Nigora Qunduzaliyeva

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

Annotatsiya: Maqolada Sharqona ta'limning mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari Sharq allomalarining qarashlari va ilmiy mulohazalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: sharqona ta'lim, mutafakkir, ta'lim maqsadi, shakl, metod, an'ana, komillik

THE IMPORTANCE OF THE PRINCIPLES OF ORIENTAL EDUCATIONAL THEORY IN IMPROVING STUDENTS' KNOWLEDGE

Nigora Kunduzaliyeva

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: The article talks about the essence, principles, laws of Eastern education, the content of teacher and student activities, the purpose of education, form, method, tools, results, ways to improve the educational process, the views and scientific opinions of Eastern scholars.

Keywords: oriental education, thinker, educational goal, form, method, tradition, perfection

Ma'lumki, Sharqona ta'limning mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari Sharq allomalarining asarlarida mukammal o'z ifodasini topgan. Jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, umum jahon miqyosida e'tirof etilgan ko'plab buyuk mutaffakirlar va qomusiy allomalardan bizgacha bezavol etib kelgan boy ta'limiy meros o'zining o'ta muhimligi va har xozirjavoblighi bilan bilan hanuzgacha butun dunyo xalqlarini o'ziga rom etib kelmoqda. Vatanimiz tarixining ibrat olsa arzigulik zarvaraqlarini holisona o'rganish va ana shunday meros namunalaridan foydalangan holda komil insonlarni shakllantirish zarurati ustivor hisoblangan va komil inson tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etgan.

Hadisshunos olim Imom al-Buxoriyning 20 dan ortiq katta va kichik kitoblari mavjud bo'lib, ular orasida "Al-jome' as-sahih" asari alohida o'rin turadi. Bu shoh asar

ahamiyati jihatidan Qur'ondan keyin ikkinchi diniy manbaa deb e'lon qilingan. Imom al-Buxoriy o'z asarlarida axloq-odob haqida fikr yuritarkan, odamlarni ota-onani e'zozlashga, ular oldidagi o'z burchlarini mukammal ado etishga da'vat etadi.

Inson sifatlari haqidagi ta'limiy qarashlarida jaholat kishiga o'lim keltiruvchi fojea deb qaraladi. U odamlarni to'g'ri so'zli bo'lishga, va'daga vafo qilishga chorlaydi. Munofiq kishining uchta belgisini ko'rsatadi, ular: yolg'on gapirish, va'daga vafo qilmaslik va omonatga xiyonat qilishdan iboratligini aytadi. U insonning kuch-qudratini jismonan pahlavonlikda emas, balki jahl chiqqanda o'zini tuta olishda, deb hisoblaydi.

Sharqona ta'limda rivojlantiruvchi ta'lim o'quvchi-shogirdlarning ichki imkoniyatlarini oshirish va ularni ro'yobga chiqarishga yo'naltiriladi. Rivojlantiruvchi ta'limda, ko'proq, sanoiy nafis suhbatlaridan foydalanilgan. Sanoiy nafis suhbatlarida ta'lim oluvchilarda muayyan bilimlarni puxta o'zlashtirish, ularni amaliyotda samarali qo'llay olishga doir ko'nikma-malakalarni shakllantirishga, bu jarayonda ularning mavjud imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishga yordam bergan. Jumladan, hadisshunos alloma at-Termiziy hadislarida odamlarni ahil bo'lishga, jamoaga foyda keltirishga, do'stlik va birodarlikka da'vat etuvchi hadislar ko'p uchraydi. "Barcha musulmonlar o'zaro birodardurlar. Ular hech qachon bir-birlariga yomonlikni ravo ko'rmasliklari kerak. Kimda-kim o'zining musulmon birodariga yordam qilsa, oxiratda Olloh unga yordam qiladi. Kimda-kim o'z birodari hojatini yengillatsa, Olloh ham uning oxiratini yengil qiladi". Alloma sog'lom tanda sog' fikr bo'ladi, degan xalq maqoliga amal qilib, vaqtni bekor o'tkazmaslikka da'vat etadi: "Ikki narsa borkim, ko'pchilik ularning qadriga etmaydi; biri sog'lik, ikkinchisi bo'sh vaqt".

Imom at-Termiziyning "Sunan" kitobida keltirilgan kishi ijtimoiy sifatlariga oid fikrlar ko'p uchraydi. Chunonchi: "Xayrli va yaxshi ishlar qilishga da'vat etishing va zulmdan qaytarishing- sening sadaqang", "Adashgan kishilarga to'g'ri yo'l ko'rsatishing ham- sening sadaqang", "O'z idshingdan boshqalarning idishiga suv solib berishing ham- sening sadaqang hisoblanadi".

Buyuk mutaffakir oilmlardan yana biri Muhammad ibn Muso Xorazmiy o'z qarashlarida ta'limda talabaning shaxsiy kuzatishlariga katta e'tibor bergan. U sezgi orqali bilish- qisman bilish, mantiqiy bilishni esa haqiqiy bilish deb hisoblagan. Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo'shgan. U insonni aqliy kamolga yetkazishda ilm-fan va ta'lim-tarbiya birlamchi deb hisoblagan.

Abu Nasr Farobiy esa komillikning asosiy mezoni jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonning asosiy sifatlarini tuzib chiqqan. Farobiy fikricha, insonning eng yuksak xususiyati uning baxtga erishganligidir. Baxtga esa, deydi alloma, faqat foydali bilimlarni o'zida jamlash orqali erishish mumkin. Chunki inson dil rohatining eng yuqori cho'qqisi- bilim olish

jarayonidir. Insonning deyarli barcha ijtimoiy sifatlari ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Shuning uchun kishining insoniy sifatlarini shakllantirishda maqsadga yo'naltirilgan ta'lim va tarbiya hamda tarbiyalanuvchining erkin tanlovi yetakchi o'rin egallaydi, deydi Farobiy.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy ta'limotida bilim oluvchilarga qalbingni yomon illatlardan, inson o'zi sezishi mumkin bo'lmagan holatlardan, qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, ochko'zlikdan va shon-shuhratdan saqlashi lozimligini aytadi. U barcha illatlarning asosiy sababi bilimsizlikda, deb bilgan. Beruniy inson kamolotida uch narsani muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi ma'rifat, ilm-fanni ham e'tirof qiluvchi- irsiyat, ijtimoiy muhit va to'g'ri tarbiyadir.

Faxr va iftixor bilan ayta olamizki, jonajon zaminimizdan jahon sivilizatsiysi rivojiga hissa qo'shgan allomalar, faylasuf olimlar juda ko'p yetishib chiqqan. Ularning merosidan foydalanib, milliy mentalitetimizni, qadriyat-u an'alarimizni, ma'naviyatimizni, insoniy go'zal hislatlarimizni, tafakkurimizni, samimiy dunyoqarashimizni yanada boyitish hamda o'zlashtirish mumkin. Bu har bir qalb uchun fahrga aylansin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Анисимов С.Ф. Мораль и поведение. - М., 1979
2. Выготский Л.С. Психология искусства / Л.С. Выготский. - М.: Высшая школа, 1987
3. Курбонов М. Миллий тарбия. Т.: «Маънавият» 2007
4. Кадилова, С. М., & Кадилова, Д. М. (2020). ФОЛЬКЛОР И ЭТНОГРАФИЯ НА СЦЕНЕ УЗБЕКСКОГО ТЕАТРА. ВВК 87, 602.
5. Кадилова, С. М. (2020). Современное состояние театрального искусства в Узбекистане. Проблемы современной науки и образования, (7 (152)), 82-84.
6. Кадилова, С. М. (2020). THE CURRENT STATE OF THEATRICAL ART IN UZBEKISTAN. Проблемы современной науки и образования, (7), 82-84.
7. Кадилова, С. М. (2020). ЎЗБЕК ТЕАТРИДА КУЛГИ САНЪАТИ. Интернаука, (38-2), 27-28.
8. Кадилова, С. М. (2020). THE PROBLEMS OF EMBODYING ETHNOCULTURAL HERITAGE ON THE THEATER STAGE. In Colloquium-journal (No. 31-3, pp. 10-12). Голопристанський міськрайонний центр зайнятості= Голопристанский районный центр занятости.
9. Mukhsinova, K. S. DEVELOPMENT TRENDS IN MODERN THEATRICAL ART OF UZBEKISTAN. European Journal of Humanities and, 17.
10. Кадилова, С. М. (2019). Узбекский театр военного периода. In Colloquium-journal (No. 26 (50), pp. 163-165). Голопристанський міськрайонний центр зайнятості.

11. F.Karomatli. O‘zbek xalqi cholg‘u musiqasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2004

12. KADIROVA, S. M., & KADIROVA, D. M. (2022). " GOLDEN WALL" OF THE NATIONAL THEATER OF UZBEKISTAN. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (1), 717-721.

13. Kadirova, S. M. (2021). СЦЕНИЧЕСКИЕ ПОИСКИ В УЗБЕКСКОМ ТЕАТРЕ. Theoretical & Applied Science, (3), 177-181.

14. Кадирова, С. М. (2020, June). РЕПЕРТУАР УЗБЕКСКОГО ТЕАТРА В ПЕРИОД ЗАРОЖДЕНИЯ. In The 10th International scientific and practical conference “Dynamics of the development of world science”(June 10-12, 2020) Perfect Publishing, Vancouver, Canada. 2020. 848 p. (p. 417).